



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



### BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Roziyeva Muborak Allabergenovna**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani*

*MMTBga qarashli 15-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*tel: +998998947678*

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtida ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Shuningdek, ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** "Krosvord" metodi, "Nechtasini topdingiz" metodi, "Kim topqir" metodi, "GV" metodi, "Sonlar piramidasi" metodi.

**Annotation:** Currently, modern methods of teaching are widely used in the educational process. The use of modern teaching methods leads to high efficiency in the teaching process. Also, in this article, opinions are expressed about the use of interactive methods in teaching mathematics in elementary grades.

**Key words:** "Crossword" method, "How many did you find" method, "Who is resourceful" method, "GV" method, "Pyramid of numbers" method.

**Аннотация:** В настоящее время в образовательном процессе широко используются современные методы обучения. Использование современных методов обучения приводит к высокой эффективности учебного процесса. Также в данной статье высказаны мнения об использовании интерактивных методов в обучении математике в начальных классах.

**Ключевые слова:** Метод «Кроссворд», метод «Сколько ты нашел», метод «Кто находчивый», метод «ГВ», метод «Пирамида чисел».

### BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Roziyeva Muborak Allabergenovna**

Bugunning dolzarb muammolaridan biri ta'lif tizimi sifatini yaxshilash va o'quvchilarga sifatli ta'lif berish. Buning uchun pedagoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga pedagog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtida ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lif metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lif muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lif metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lif-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud.

### **"Krosvord" metodi**



Matematika darsida o'quvchilarni qanday, qaysi metodlar, usullar yordamida darsga jalg' qilsak bo'ladi? Yuqorida berilgan "Krosvord" metodi orqali yangi mavzuga kirish qilish va asosiy tushunchalarni o'quvchilarga oson yetkazish mumkin. Quyida berilgan rasm orqali esa, o'quvchilar diqqatini darsga butunlay qaratish mumkin. Bunda o'quvchilar rasmda berilgan uchburchaklar sonini sanash jarayonida, diqqatlarini beixtiyor darsga yo'naltiradilar. Agarda bu guruhlar o'rtasida berilsa, jarayon yanada qiziqarli tus oladi.

### **"Nechtasini topdingiz?" metodi**





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



### “Kim topqir?” o'yini

Bu o'yin o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga va matematik tahlik qilishga undaydi. Bunda olma-7 raqamini, gilos -10 raqamini berilgan ifodaga qarab topib olishi va kivi-1 raqamini bildirishini topgan holda  $7-1=6$  natijani topqirlik bilan amalga oshirishi mumkin. Bunday misollar, odatiy misollarga qaraganda o'quvchini zeriktirmaydi va yanada qizizqishini oshiradi.

$$\begin{array}{ccc} \text{apple} & + & \text{apple} \\ \text{apple} & + & \text{apple} \\ \text{apple} & - & \text{kiwi} \end{array} = 14$$

$$\begin{array}{ccc} \text{apple} & + & \text{apple} \\ \text{apple} & + & \text{apple} \\ \text{apple} & - & \text{kiwi} \end{array} = 17$$

$$\begin{array}{ccc} \text{apple} & + & \text{apple} \\ \text{apple} & + & \text{apple} \\ \text{apple} & - & \text{kiwi} \end{array} = 11$$

$$\begin{array}{ccc} \text{apple} & + & \text{apple} \\ \text{apple} & + & \text{apple} \\ \text{apple} & - & \text{kiwi} \end{array} = ?$$

"Bir xonali sonlarni o'nlikdan o'tib qo'shish" rnavzusini o'rganishda umumta'lim vazifalarning amalga oshirilishiga oid misolni ko'rib chigaylik. Doskaga misollar yozilgan:

$$19+2=? \quad 39+2=?$$

O'qituvchi bu misollarni oson hisoblashning usulini quyidagicha tushuntirib beradi va o'quvchilar misollarni qynalmasdan hisoblaydilar.

$$\begin{array}{cc} 19+2 & 26+7 \\ / \backslash & / \backslash \\ 1 & 1 & 4 & 3 \end{array}$$

O'qituvchi: "ushbu ifodalarda yuqoridagi usulni qo'llang", - deb topshiriq beradi. So'ngra ushbu misollar taklif etiladi: **109+2 ,119+2 ,129+2 ,139+2 ,149+2** va hokazo.

O'qituvchi darsda foydalananadigan usullarni ushbu misolda batafsilroq ko'rib chiqamiz. Mavzu: 68:4 ko'rinishidagi bo'lismi tushuntirish. Bu jadvaldan tashqari bo'lish holidir. Nazariyasi:  $68:4 = (40+28):4 = 40:4 + 28:4 = 10 + 7 = 17$ . Tushuntirish quyidagi usullarda tahlil qilinib olib boriladi: 1) dogmatik usul; 2) evristik usul; 3) tadqiqot usuli (muamrnoli usul); Birgalikda ishlash bilish faoliyatining faollashuviga yordam beradi, o'quvchilarda o'zaro nazorat qilish va o'zaro yordam berish sifatlarini shakillantiradi, tarbiyaviy vazifani ado etadi. Tarbiyaviy vazifalarning hal etilishida darsning ayrim tarbiyaviy o'rinnari emas, balki butun o'quv jarayoni: ta'lim mazmuni, o'quv ishi usullari, darsni puxta tashkil etilishi yordam berishini unutmaslik kerak.

Matematika darslarim qiziqarli va samarali bo'lishi asosan, darslarimda uchun quyidagi metodlardan, o'yinlardan foydalananaman:

1. Rebuslami o'ylab topish.
2. Qo'shishga oid qiziqarli masalalar.
3. 100 ichida raqamlashni bilishni tekshirishga oid mashqlar.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



4. Topqirlikni talab qiladigan masalalar.
5. Hazil masala.
6. Topishmoqlar.
7. Quvnoq sanoq (20 ichida) o'yini.
8. Hazil masala.
9. "Sonni to'ldir" o'yini.

**“GV” metodi.**

Bu metod gorizontaliga va vertikaliga 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlarni yozish va berilgan natijani chiqarishga asoslanadi. Bunda o'quvchining ikki tomonlama tahlil qilish, mantiqiy fikrlash ko'nikmasi o'sib boradi.

**1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni shunday joylashtiringki,  
natijada to'g'ri matematik amallar hosil bo'lsin .**



$$\boxed{\phantom{0}} : \boxed{\phantom{0}} \times \boxed{2} = \boxed{6}$$

$$- \quad \times \quad + \\ \boxed{\phantom{0}} + \boxed{8} \times \boxed{\phantom{0}} = \boxed{37}$$

$$\times \quad - \quad - \\ \boxed{1} + \boxed{\phantom{0}} \times \boxed{\phantom{0}} = \boxed{36}$$

=                    =                    =

$$\boxed{4} \quad \boxed{17} \quad \boxed{1}$$






### **“Sonlar piramidası” metodi.**

Bu metod qo’shish va ayirish amaliga doir misollarni mustahkamlash darslarida foydalaniladi. Piramidaning pastki qismida sonlar kichik bo’lib, ular yuqoriga qarab qo’shib boriladi. Va aksincha piramidaning yuqori qismida kata sonlar bo’lin, ular pastga qarab ayirilib, kamayib boradi. Bu metod ham o’quvchilarni mantitiy va tizimli fikrlashga, matematik hisoblashga o’rgatadi.

#### **“Sonlar piramidası”**

Piramidaning pastki qismidagi sonlar yig’indi shaklida ko’payib boradi. Tepa qismida esa aksincha, sonlarning ayirmasi bajarilib, sonlar kamayib boradi.



Xulosa qiladigan bo’lsam, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot-texnologiyalar asrida zamon talabiga mos tarzda bilim berishga yondashmas ekanmiz, ko’zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Bugunning eng yaxshi o’qituvchisi, albatta, o’z ustida tinimsiz ishlashi, dars jarayoniga zamonaviy va interfaol usullarni joriy qila olishi kerak deb hisoblayman.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiev N.SH., Asadov YU.M., Akbarova S.N., Temirov D.SH. Umumiyl o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. //O'quv-uslubiy qo'llanma.(I-qism). Toshkent, 2015. - 160 b; B. 5-6 b.
2. Interfaol ta'lim metodlarining psixologik asoslari uslubiy qo'llanma SamDU nashr-2015 A.Saidov
3. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'ziyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent "Innovatsiya-Ziyo"-2019-149 bet
4. [www.Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)

